

aniqlashning kognitiv model asosidagi modeli riskni erta ushlash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini ochiq modellashtirish va ustuvor boshqaruv choralari asoslash imkonini beradigan integrallashgan yondashuvdir. Model riskni indikatorlar orqali kuzatiladigan signal, manfaatdor tomonlar kutilmalariga bog‘langan sezgirlik va kognitiv xaritada ta’sir yo‘llari sifatida birlashtiradi. Natijada risk reyestri formal hujjat darajasida qolmaydi, balki loyihaning qaror qabul qilish tizimiga ulangan analitik instrumentga aylanadi; bu esa innovatsion tashabbuslarning barqarorligi va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Kerzner H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. Hoboken: John Wiley & Sons, 2017. 832 p.
2. Rogers E. M. Diffusion of Innovations. New York: Free Press, 2003. 576 p.
3. Kosko B. Fuzzy Cognitive Maps. International Journal of Man-Machine Studies. London: Academic Press, 1986. Vol. 24, No. 1. P. 65–75.
4. Логинов В. Н. Управление рисками: учебное пособие. Москва: КНОРУС, 2019. 256 с.
5. ISO 31000:2018. Risk management – Guidelines. Geneva: International Organization for Standardization, 2018. 16 p.
6. Абдурахмонов Қ. Х., Холмўминов Ш. Р. Инновацион менежмент: дарслик. Тошкент: Иқтисод-Молия, 2017. 352 б.

**Zuhra SAYIDOVA,**  
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti,*  
*Ilmiy rahbar: Salim DUSANOV,*  
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,*  
*“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dotsenti, PhD*

## **O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonda turizm sohasidagi kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining iqtisodiy mazmuni va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Mamlakatda turizm industriyasini rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishda kichik biznesning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, sohaga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, soliq yengilliklari va investitsion rag‘batlantirish choralari tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri ilmiy jihatdan baholangan. Maqolada turizm yo‘nalishidagi kichik biznesni yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** turizm, kichik biznes, tadbirkorlik, davlat qo‘llab-quvvatlashi, subsidiyalar, investitsiyalar, turizm xizmatlari, iqtisodiy rivojlanish.*

***Аннотация.** В данном тезисе анализируются экономическое содержание и практическое значение механизмов государственной поддержки субъектов малого бизнеса в сфере туризма Узбекистана. Рассматривается роль малого предпринимательства в*

развитии туристической индустрии страны, повышении качества оказываемых услуг и создании новых рабочих мест. Дана научно обоснованная оценка влияния льготного кредитования, субсидий, налоговых преференций и мер инвестиционного стимулирования на деловую активность в секторе. По результатам исследования разработаны предложения и рекомендации, направленные на дальнейшее эффективное развитие малого бизнеса в туристической сфере.

**Ключевые слова:** туризм, малый бизнес, предпринимательство, государственная поддержка, субсидии, инвестиции, туристические услуги, экономическое развитие.

**Abstract.** This thesis analyzes the economic essence and practical significance of state support mechanisms for small business entities in the tourism sector of Uzbekistan. The role of small businesses in developing the tourism industry, improving service quality, and creating new jobs in the country is highlighted. In addition, the impact of preferential loans, subsidies, tax incentives, and investment support measures allocated to the sector on entrepreneurial activity is scientifically assessed. The thesis also develops proposals and recommendations for further development of small businesses operating in the tourism sector.

**Keywords:** tourism, small business, entrepreneurship, state support, subsidies, investments, tourism services, economic development.

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur soha mamlakat iqtisodiy o‘rinishini ta’minlash, xizmatlar eksporti hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda hududlarning investitsion va turistik jozibadorligini kuchaytirishda muhim o‘rin egallaydi. Shu bois ko‘plab davlatlarda turizm industriyasini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekistonda ham keyingi yillarda turizm sohasini modernizatsiya qilish va uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Turizm sohasining barqaror rivojlanishida kichik biznes subyektlarining roli beqiyosdir. Xususan, oilaviy mehmon uylari, xususiy mehmonxonalar, transport va gidlik xizmatlari, milliy hunarmandchilik hamda umumiy ovqatlanish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari turizm infratuzilmasining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Mazkur subyektlarning faoliyati aholi bandligini ta’minlash, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va turistik xizmatlar sifatini oshirishda muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, davlat tomonidan turizm sohasidagi kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy va institutsional mexanizmlar izchil takomillastirilmoqda. Jumladan, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, investitsion rag‘batlantirish dasturlari hamda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va sohaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli turizm sohasidagi kichik

biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda turizm sohasining yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibidagi ulushi so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘zgarib borgan. Xususan, 2019-yilda ushbu ko‘rsatkich 3,6% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda pandemiya ta’siri natijasida keskin pasayib, 0,5% gacha tushgan. 2021-yilda turizm sohasining bosqichma-bosqich tiklanishi kuzatilib, YAIMdagi ulush 1% ni tashkil etgan. 2022-yilda

turizmning iqtisodiyotdagi faollashuvi natijasida ushbu ko'rsatkich 1,5% gacha oshgan bo'lsa, 2023-yilda biroz pasayish kuzatilib, 1,3% ni tashkil etgan. 2024-yilda esa turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari natijasida YaIMdagi ulush 2,5% gacha oshgani qayd etilgan<sup>335</sup>.

Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davr mobaynida turizm sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi tebranishlar bilan rivojlangan bo'lib, pandemiyadan keyingi tiklanish jarayoni hamda davlat tomonidan amalga oshirilgan qo'llab-quvvatlash choralari uning barqaror o'sishiga xizmat qilgan.

Turizm sohasidagi kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari berilishi, subsidiyalar ajratilishi hamda imtiyozli kreditlar taqdim etilishi ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oilaviy mehmon uylari va xususiy mehmonxonalarni tashkil etishga qaratilgan davlat dasturlari ichki va tashqi turizm rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida hududlarda turistik zonalar tashkil etilishi, yangi mehmonxona majmualari qurilishi hamda transport va servis xizmatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa turizm xizmatlari sifatining oshishiga hamda sayyohlar oqimining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan turistik xizmatlarni xalqaro miqyosda targ'ib qilish, marketing va reklama faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham bir qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Natijada turizm sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni ortib, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda hamda xizmatlar bozorida raqobat muhiti shakllanmoqda. Mazkur holat mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi, hududiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi va aholining daromad manbalarini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish va xorijiy sayyohlar oqimini oshirish maqsadida davlat tomonidan bir qator yangi qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilmoqda. Xususan, 2026–2027-yillarda Malayziya va Indoneziyadan keladigan ziyorat turizmi oqimini 100 ming nafarga yetkazish bo'yicha "Umrah Plus" dasturi doirasida maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqilgan<sup>336</sup>.

Mazkur dasturga muvofiq, har bir jalb qilingan sayyoh uchun tur operatorlarga 100 AQSh dollari miqdorida subsidiyalar ajratilishi belgilangan. Ushbu mexanizm turizm kompaniyalarining faoliyatini rag'batlantirish, yangi yo'nalishlarni rivojlantirish hamda xalqaro turistlar oqimini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Malayziya va Indoneziyada targ'ibot kampaniyalari tashkil etish, aviaqatnov yo'nalishlarini kengaytirish hamda turistik xizmatlar narxlarini optimallashtirish orqali O'zbekistonning jahon turizm bozoridagi mavqeini mustahkamlash ko'zda

<sup>335</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot va xizmatlar sohasi statistikasi [Elektron resurs]. – <https://stat.uz> (murojaat qilingan sana: 15.05.2026)

<sup>336</sup> "2026–2027 yillarda Malayziya va Indoneziyadan "ziyosat turizmi" yo'nalishida O'zbekistonga keladigan sayyohlar soni 100 ming nafarga yetadi" // O'zA – O'zbekiston Milliy axborot agentligi [Elektron resurs]. – (Murojaat sanasi: 15.05.2026.)

tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasida turizm sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish hamda soliq va bojxona imtiyozlarini berish belgilangan<sup>337</sup>.

Turizm sohasida kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta‘sir etuvchi muammolardan biri sifatida mehmonxona va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasidagi nomutanosibliklar hamda xizmatlar sifatining barqaror emasligi ko‘rsatib o‘tiladi. Xususan, ayrim hududlarda mehmonxonalar yetishmovchiligi, narxlarning barqaror emasligi hamda servis xizmatlari sifatining pastligi kichik tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyat yuritishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Turizm sohasida malakali kadrlar, jumladan gidlar va xizmat ko‘rsatish mutaxassislari yetishmasligi ham kichik biznes rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biridir. Bu holat xizmatlar sifatining pasayishiga va turistlar ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaslikka olib kelmoqda.

Bundan tashqari, turistik xizmatlar bozorida raqamli to‘lov tizimlarining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi ham ayrim xorijiy turistlar uchun noqulayliklar tug‘dirmoqda. Bu esa kichik biznes subyektlarining xalqaro mijozlar bilan ishlash imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm sohasidagi kichik biznes subyektlarini yanada rivojlantirish uchun hududlarda turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish, jumladan mehmonxona va servis xizmatlari sifatini oshirish hamda raqamli turizm xizmatlarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, imtiyozli kreditlash tizimini soddalashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yanada rivojlantirish sohaning barqaror taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirish hamda xalqaro marketing va reklama faoliyatini kuchaytirish kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda turizm sohasidagi kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari sohaning barqaror rivojlanishi, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda turizm xizmatlari hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va infratuzilma loyihalari natijasida turizm sohasining iqtisodiyotdagi ulushi ortibbormoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqhisoblanadi:

- hududlarda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va servis xizmatlari sifatini oshirish;
- kichik biznes subyektlariga ajratiladigan imtiyozli kredit va subsidiyalar

---

<sup>337</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘RQ-549-son, 18.07.2019 y. [Elektron resurs]. – <https://lex.uz/docs/-4428097?ONDATE=14.05.2024>. (murojaat qilingan sana: 15.05.2026).

hajmini kengaytirish;

- oilaviy mehmon uylari hamda xususiy turizm xizmatlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- raqamli turizm xizmatlari va elektron to‘lov tizimlarini keng joriy etish;
- O‘zbekistonning turistik salohiyatini xalqaro miqyosda faol targ‘ib qilish.

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish turizm sohasidagi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘RQ-549-son, 18.07.2019-yil. [Elektron resurs]. – <https://lex.uz/docs/-4428097?ONDATE=14.05.2024>
2. “2026–2027 yillarda Malayziya va Indoneziyadan “ziyosat turizmi” yo‘nalishida O‘zbekistonga keladigan sayyohlar soni 100 ming nafarga yetadi” // [O‘zA – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi](#) [Elektron resurs].
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot va xizmatlar sohasi statistikasi [Elektron resurs]. – <https://stat.uz>
4. Xolmatov B. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 156 b.

**Gulrux CHINPO‘LATOVA,**  
**O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti,**  
**Ilmiy rahbar: Nilufar BATIROVA,**  
**O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,**  
**“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dotsenti, PhD**

## **ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi ziyorat turizmini rivojlantirishda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari hamda ularning turizm xizmatlari samaradorligiga ta‘sirini tadqiq etilgan. Tadqiqotda chatbotlar, virtual gidlar, turistlar oqimini prognozlash tizimlari va raqamli marketing vositalarining turistik xizmatlar sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda turizm subyektlarining raqobatbardoshligini kuchaytirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda ziyorat turizmini raqamlashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** ziyorat turizmi, sun‘iy intellekt, iqtisodiy mexanizmlar, raqamli iqtisodiyot, turizmni raqamlashtirish, “smart tourism”, turistlar oqimi, turizm samaradorligi, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston turizmi.

**Аннотация.** В настоящем тезисе исследуются экономические механизмы